


# ТАФАККУР ВА ТАЛҚИН

*(Магистратура талабалари ва ёш олимларнинг  
илмий мақолалар тўплами)*

**“Халқ билан мулоқот ва инсон  
манфаатлари” йилига бағишиланади**



**Бухоро - 2017**

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА  
МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ**

**“ХАЛҚ БИЛАН МУЛОҚОТ ВА ЙИНСОН  
МАНФААТЛАРИ” ЙИЛИГА БАГИШЛАНАДИ**

**ТАФАККУР ВА ТАЛҚИН**

**(Магистратура талабалари ва ёш олимларнинг  
илемий мақолалар тўплами)**

**“Дурдана” нашриёти**

**Бухоро, 2017**

## TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MODUL

### TEXNOLOGIYASINING O'RNI

M. Ochilova BuxDU magistranti,

M.Y.Ergashov k.f.n., dotsent

Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizda uzlusiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish hamda ta'lim samaradorligini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ilmiy – texnik taraqqiyot jadallashgan davrda o'qitish samaradorligi, asosan, o'quvchining o'qitish jarayonidagi o'rni, o'qituvchining unga bo'lgan munosabatiga bog'liq bo'ladi. O'quv tarbiya jarayonida ta'lim texnologiyalaridan uslubiy jihatdan to'g'ri foydalanish belgilangan maqsadga erishish samaradorligini oshiradi.

Hozirgi kunda internet texnologiyalar inson faoliyatining barcha sohalarida alohida muhim o'rin egallamoqda. Internetdan darslarda foydalanish o'quvchilarning axborot madaniyatini oshiradi va mustaqil ta'lim olish uchun juda qulaydir. Darslarni olib borish davomida an'anaviy manbalarda keltirilganiga qaraganda ancha keng ma'lumotlardan foydalanish imkonini beradi. Saytlardan foydalanish o'quv materialini ilmiy jurnallar va boshqa ixtisoslashtirilgan manbalarda paydo bo'lgan yangi ma'lumotlar bilan tezkor to'ldirib borishni ta'minlaydi.

Jumladan, ta'lim texnologiyasining elementi hisoblangan modulli ta'lim tamoyillariga asoslanish, o'z navbatida, mashg'ulotlar jarayonini va ta'lim-tarbiya maqsadlarini avvaldan loyihalash, o'quv, sinov-nazorat va taqdimot materiallari bilan to'ldirish hamda mustaqil ta'limning tashkiliy –uslubiy jihatlari yoritilish imkoniyatini beradi. Modullar to'plami o'qitish jarayonini ilmiy tashkil etishga va uning sifat hamda samarasini ta'minlash uchun qo'llaniladi.

Modulli o'qitish – tartibli o'qitish demakdir. Kimyo fanlarini modulli o'qitishda birinchi navbatda ta'lim mazmuniga daxldor tushunchalar, qoidalar, nazariyalar, qonunlar va ular orasidagi umumiyl bog'lanishni ifodalovchi qonuniyatlarini tushuntirishga samarali xizmat qiladi. Bilim oluvchilarning o'quv-bilish faoliyatları hamda ularning o'zlashtirishini nazorat qilishda ham modullardan foydalaniladi.

Modulli o'qitish maqsadi, mazmuni, usul va shakl hamda

vositalarini o'quvchilarining ehtiyojlarini hisobga olgan holda muvofiqlashtirishdan iborat. Asosiy vazifasi esa tugallangan axborotlar blokini, o'quv dasturlarini to'la, qisqa yoki chuqurlashtirilgan tabaqalash orqali bo'laklarga bo'lib, o'qitish imkoniyatini yaratishdan iboratdir. Modulli o'qitishda o'quv jarayonida talabalar modullardan tuzilgan o'quv materiallari bilan mustaqil ishlashadi.

Quyida akademik litseylarning tabiiy fanlar yo'nalishida tahsil oluvchi I-bosqich o'quvchilari uchun Umumiy kimyo fanidan "Anorganik birikmalarning eng muhim sinflari" mavzularida mashg'ulotlarni o'tishda foydalanishni tavsiya etamiz.

Kimyo fanlarini modulli o'qitish texnologiyasi har qaysi modul uchun ishlab chiqilgan pedagogik – texnologik xaritalar orqali ro'yobga chiqariladi. Demak, dastlabki bosqichida har bir bo'lim uchun o'qitishning texnologik xaritasi tuziladi.

"Moodle" dasturiy tizimida "Anorganik birikmalarning eng muhim sinflari" mavzusi bo'yicha modul yaratildi. O'quv rejada mazkur bob materiallarini o'tish uchun jami 12 soat (4 soat nazariy, 4 soat amaliy, 4 soat mustaqil ish) ajratilgan. Bu modul uchun oksidlar, kislotalar, asoslar, amfoter gidroksidlar va ularning xossalari, shuningdek, tuzlarning xillari va ularning olinish usullari mavzulari bo'yicha nazariy qism (ma'ruba matnlari), laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish tartibi, topshiriqlari (savol, mashq va masalalar), test topshiriqlari, tayanch iboralar hamda ularning tavsifi va boshqa ma'lumotlar kiritildi.

Modul uchun tayyorlangan va tavsiya qilingan tarqatma va tasvirli materiallar to'plami o'quvchilarga mashg'ulotdan oldin beriladi. O'quvchilar materiallarni o'zlashtira borib, bir moduldan ikkinchi modulga o'tadi. Iqtidorli o'quvchilar boshqalarga bog'liq bo'limgan holda test sinovlaridan ham o'tishi mumkin.

Mazkur modul o'ziga xos 4 ta o'quv elementini o'z ichiga oladi. Modulda o'quv elementlari mazmunan o'quv dasturiga mos ketma-ketlikda joylashtirildi.

Shuningdek kimyo fanlarini o'qitishda elektron darslikning imkoniyatlarini multiplikasiya va video texnikaning zamonaviy vositalarini qo'llagan holda kengaytirish mumkin. Bular o'quv kursi bo'yicha videoma'ruzalar, ishlab chiqarish jarayonlarining namoyishi, mashhur olimlarning chiqishlari, ma'ruzalari va boshqalar

bo'lishi mumkin.

Akademik litseylarda kimyo fanlarini o'qitishda modulli texnologiyalardan foydalanilsa, o'quvchilarning egallayotgan bilimlari barqaror bo'ladi, ongli ravishda mustaqil xulosalar chiqaradi. Bu jarayon shaxsning rivojlanishiga, mustaqil bilim olishiga yo'naltiruvchanlik funksiyasini bajarishga yordam beradi, o'quvchilarda uzlucksiz o'z ustida ishlash ko'nikmasi shakllanadi, ta'lim samaradorligi oshadi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim jarayonini tashkil etishda o'qituvchi tomonidan o'qitish metodlarini to'g'ri tanlashi va dars bosqichlarida o'rinali foydalana olish, birinchidan, ta'lim jarayoni maqsadiga erishishini ta'minlaydi, ikkinchidan, o'quvchilarning samarali bilim olishiga erishiladi. Pirovard natijada ta'lim jarayonining asosiy maqsadi bo'lgan ta'lim samaradorligining oshishiga erishiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1.I.A.Karimov. Barkamol avlod—O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T. "Sharq", 1998. 63 b.

2.Sh.M.Mirzayev, T.B.Boltayev, B.B.Qobilov. Modul texnologiyasi-ta'lim jarayoniga tizimli yondashuv. Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti. 2015. №3, 160-163-betlar

3.M.M.Abdulxayeva, O'M.Mardonov. Kimyo. Akademik litsey va kasb hunar kollejlari o'quvchilari uchun darslik. T.;O'zbekiston, 2002, 672 b.

## **KRISTOFER MARLONING RUHINI IBLISGA SOTGAN QAHRAMONI FAUST FOJEASI**

**M.T. Pulatova BuxDU magistranti**

**Ilmiy rahbar f.f.d. Baqoeva M.K.**

Kristofer Marlo 1564-1593 yillarda yashab ijod etgan buyuk ingliz dramaturgi bo'lib, uning "Buyuk Temurlang" ("Tamburlaine the Great"), "Doktor Faustning fojeaviy tarixi" ("The Tragical History of Dr.Faustus"), "Matalik Yahudiy" ("The Jew of Malta"), "Eduard II" kabi qator asarlari hanuzgacha katta qiziqish bilan o'qiladi.

Bir vaqtning o'zida ham tarixiy, ham afsonaviy hisoblangan Faust shaxsi atrofida juda ko'p asotirlar yuradi. Logan Faust(1480-1540) bilimi kuchli doktor sifatida ko'pgina mamlakatlarda dong

## МУНДАРИЖА

	Сўз боши	3
Акрамова Г.М., Арслонов Қ.П.	15-16 ёшдаги мактаб ўқувчилари ўртасида енгил атлетика спорт турига қизиқиши ошириш тамойиллари	5
Akramov I.I., Rasulov Z.	Dunyoning lisoniy manzarisini tasvirlashda iboralarning o’rni	8
Abdullayev H.H., SHomurodov T.R.	Chorvachilik va parandachilikga ixtisoslashgan fermer xo’jaliklarida biogaz ishlab chiqarish istiqbollari	12
Arabov U.H.	Qaror va farmoyishlar bazasini shakllantirishda axborot texnologiyalarining o’rni, f9 dasturi.	14
Axmedov A., Gafurov K.H.	Texnologik jarayonlarni akt asosida boshqarishda dasturlar ishlab chiqish texnologiyasi	18
Bafayeva Z.KH., Artikova KH.T.	Physical and chemical properties of historically irrigated pasturable alluvial soils of the Bukhara oasis	23
Бафаева З.Х., Артикова Х.Т.	Экологическое состояние орошаемых почв Бухарского оазиса	26
Восиева Ш., Гадоева М.И.	Инглиз тилида отларнинг аффиксация усули билан ясалиши	31
Вохидова З.Н., Асадова С.С., Файзиллоева Н.Б., Рахмонов И.М.	Замонавий тикув машиналарида динамик зўрикишнинг салбий оқибатлари ва уларни бартараф этиш йўллари	35
Gafurov M.O. Ergashev S.	Tezligi rostlanadigan elektr yuritmalaridagi dinamik jarayonlarning “matlab” dasturidagi tahlili	38
Djafarova N.A.	Turizmdagi statistik hisob usullari dunyo mamlakatlari misolida	42
Джураева З.И., Бакзева М.К.	Проблема положительного героя в рассказах редьярда киплинга о маугли	47
Djumayeva M.Z.	Jismoniy madaniyat ta’limining testlash va	52

Олимов Б.Б.	Оценка качества гидрогелей окисленного крахмала и загущающих композиций на его основе	112
Ochilova M.	Ta'lim samaradorligini oshirishda modul	
Ergashov M.Y.	texnologiyasining o'rni	117
Pulatova M.T., Baqoeva M.K.	Kristofer marloning ruhini iblisga sotgan qahramoni faust fojeasi	119
Ravshanov O', Rizayev B.	Buxoro muzeyida saqlanayotgan rus samovarları tarixidan	123
Ramazonov J.J.	Sotsial intellektni shakllantirishda amaliy psixologik usullardan foydalanishning o'ziga xos jihatlari	126
Расулова Н.Н., Умарова Н.Б.	Ўзбекистонда эркин иқтисодий зоналарни ташкил этиш амалиёти	129
Rasulova N.N.	Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning mintaqaviy xususiyatlari	133
Ruziyeva G.F.	Buxoro turizm sohasi rivoji tahlili, Buxoroda turistik erkin iqtisodiy hududlar yaratish zarurati va imkoniyatlari	138
Сайдова Г.	Авлоний шеърий асарларидаги айрим метафоралар таҳлили	141
Sayliyeva Z.R.	Navoiy ijodida xuroson va hirot tasviri	144
Сайфуллаев Ф.К. Хасанова Г.Дж.	Ўзбекистонда инвестиция сиёсати ва уни такомиллаштириш йўллари (Бухоро вилояти мисолида)	148
Сафаров К.	Ўзбекистонда ички туризмни	
Алимова Д.Д.	ривожлантириш	152
Тожиева М.В.	Мамлакат экспорт салоҳиятини	
Хасанова Г. Дж.	ривожлантиришни такомиллаштириш йўллари (Бухоро вилояти мисолида)	156
Фатиллоев С.З., Шодиев А.З.	Пластмасса ва полимер чиқиндилиарини қайта ишлаш орқали электротехник ва курулиш материаллар ишлаб чиқаришни маҳалийлаштириш	159
Xaytullayeva N. Yusupova H.O'	Xayyom "ruboiyot"ining ingliz tiliga tarjimalarida metaforik vositalarning qayta yaratilishi (e.fitzjerald va a.j.arberri	161